

ZAMONAVIY PEDAGOGIK RIVOJLANISH VA UNING TADQIQOT ASPEKTLARI SIFATIDA ELEKTRON PORTFOLIODAN FOYDALANISH

Erkaboyeva Saodatxon Yulbarsova

Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi o'qituvchisi,

Andijon Davlat Chet Tillar Instituti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15662632>

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik rivojlanish jarayonida elektron portfoliolarning o'rni, ularning o'quvchilarning sifatli bilim olishlarida ijodiy ishlarini elektron portfoliolarida yoritish uchun ishlatishlarida va o'qituvchilar malakasini oshirishdagi ahamiyati hamda ilmiy tadqiqotlarda qo'llanilishiga oid asosiy nazariy va amaliy jihatlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, soha olimlarining fikrlari asosida elektron portfoliolar orqali reflektiv o'rganish, metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish va sifat monitoringini olib borish imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: elektron portfolio, zamonaviy pedagogik rivojlanish, reflektiv tahlil.

Аннотация

В этой статье рассматривается роль электронных портфолио в современном педагогическом развитии, их значение в качественном образовании студентов, их использование в электронных портфолио для выделения их творческой работы и их использование в научных исследованиях. В ней также обсуждаются возможности рефлексивного обучения, формирования метакогнитивных навыков и контроля качества с помощью электронных портфолио на основе мнений ученых в этой области.

Ключевые слова: электронное портфолио, современное педагогическое развитие, рефлексивный анализ.

Abstract

This article examines the role of electronic portfolios in modern pedagogical development, their importance in students' quality education, their use in electronic portfolios to highlight their creative work, and their use in scientific research. It also discusses the possibilities of reflective learning, the formation of metacognitive skills, and quality monitoring through electronic portfolios, based on the opinions of scholars in the field.

Keywords: electronic portfolio, modern pedagogical development, reflective analysis

Kirish

XXI asr ta'limi o'z oldiga tanqidiy fikrlovchi, innovatsion yondashuvga ega, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana oladigan shaxsni shakllantirishni maqsad qilgan. Ushbu yondashuvlar doirasida elektron portfoliolar pedagogik jarayonni individuallashtirish va ta'lim sifatini monitoring qilish vositasi sifatida alohida e'tiborni tortmoqda. Zamonamiz tadqiqotchisi Barrett¹, ta'limda portfoliolar, ayniqsa, elektron shakldagilar (e-portfolio) orqali o'qituvchilarni hamda o'quvchilarni ham reflektiv tahlilga jalb etish mumkinligini ta'kidlamogda. Elektron portfolio o'qituvchilarning pedagogik rivojlanishida refleksiya qilishga undovchi bir vosita bo'lib elektron portfolioda o'qituvchilar o'z ish faoliyatiga tegishli bo'lgan dars ishlanmalari, material va resurslarni hamda o'quvchilar uchun tayyorlagan ko'rgazmali tarqatma materiallari va topshiriqlarini bir joyda to'plash imkoniga ega bo'ladilar.

¹ Barrett, H. (2007). Researching Electronic Portfolios and Learner Engagement. The REFLECT Initiative.

Elektron portfolioning pedagogik salohiyati

Elektron portfolio — bu o'quvchining yoki o'qituvchining o'z o'quv faoliyati, rivojlanish bosqichlari, yutuqlari va kelajakdagi maqsadlarini raqamli formatda aks ettiruvchi shaxsiy hujjatlar to'plamidir. L. A. Darling-Hammond² ta'kidlaganidek, elektron portfoliolar o'quvchilarning chuqur o'rganishga bo'lgan intilishini rag'batlantiradi, o'z-o'zini tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, bu vosita o'qituvchining kasbiy o'sishini hujjatlashtirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot aspektlari: Elektron portfolioning ilmiy va amaliy qirralari

Zamonaviy tadqiqotlar elektron portfoliolarini quyidagi asosiy tadqiqot aspektlari doirasida o'rganishni taklif etmoqda. Unga ko'ra o'rganish jarayonida ishtirokchilar bajargan topshiriqlari bo'yicha ishlab chiqqan ishlariga baho berish uchun uni qayta tahlil qilib chiqishlari kerak bo'ladi va bu jarayon birga o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirib hamkorlikda ishlash uchun yaxshi imkoniyatlar keltirib chiqaradi.

1. Elektron portfolioning eng asosiy vazifalaridan biri uning reflektiv o'rganish uchun qulay vaziyat yaratib berishidir. Moon³ reflektiv o'rganish nazariyasiga tayangan holda, elektron portfoliolar o'quvchining o'z fikr va tajribalarini qayta tahlil qilishiga xizmat qilishini qayd etadi.

2. Elektron portfolio orqali baholashni tahlil qiladigan bo'lsak bu borada Cambridge Baholash tizimi elektron portfoliolarining summativ va formatif baholashdagi o'rnini ko'rsatib, ular o'quvchining rivojlanish dinamikasini ko'rsatishda ishonchli vosita ekanini ta'kidlaydi.

3. Elektron portfoliodan foydalanish bu innovatsion pedagogik yondashuvdir. Jafari va Kaufman⁴ elektron portfolioni raqamli pedagogika kontekstida innovatsion vosita sifatida baholab, ularning o'qituvchilar orasida tajriba almashinuvi va hamkorlikni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini ochib berishini ilgari surgan.

4. Shaxsiylashtirilgan o'rganish: 2012 yil European Institute of E-Learning⁵, Yevropa Ittifoqi tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarida e-portfolio orqali shaxsiy o'rganish yo'llarini tuzish, o'zlashtirishda muammolarga individual yondashuvni ta'minlash mumkinligini ko'rsatgan. Bu tadqiqotlar natijasida elektron portfolioni zamonaviy ta'limda keng qo'llash zamon talabi ekanligi ham ko'rinib tirbdi.

Elektron portfoliolarini amaliyotda qo'llash tajribalari


Turli mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, elektron portfoliolarini ta'lim tizimiga integratsiyalash, ayniqsa o'qituvchilar tayyorlash va sertifikatlashtirish jarayonlarida yuqori samaradorlikka ega. Masalan, AQShning ba'zi shtatlarida (masalan, Kaliforniyada) pedagoglar o'z malaka oshirish portfellarini Google Sites, Padlet yoki Mahara kabi platformalarda yuritadilar. O'zbekiston sharoitida ham raqamli portfoliolarini DTM sertifikatlash tizimi bilan integratsiya qilish bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yilmoqda.

² Darling-Hammond, L. (2008). Teacher Learning That Supports Student Learning. Educational Leadership, 55(5), 6-11.

³ Moon, J. A. (1999). Reflection in Learning and Professional Development. Routledge.

⁴ Jafari, A. & Kaufman, C. (2006). Handbook of Research on ePortfolios. Idea Group Inc.

⁵ European Institute of E-Learning (2012). ePortfolio Use in Higher Education.



1-rasm. Elektron portfolioning tadqiqotdagi asosiy yo'nalishlari ahamiyati

Yuqoridagi rasmda elektron portfoliodan foydalanishning asosiy yo'nalishlari sifatida o'qituvchilar ularni individual holda o'z kasbiy faoliyatini rivojlantirish uchun foydalanishi hamda kasbiy rivojlanishini tahlil qilish va baholash vositasida qo'llashlari ustunlik qilayotganini ko'riamiz.

Xulosa

Zamonaviy pedagogik rivojlanish doirasida elektron portfoliolar nafaqat o'quv faoliyatini hujjatlashtirish, balki reflektiv tahlil, sifat monitoringi, shaxsiylashtirilgan o'rganish kabi ilg'or tamoyillarni amaliyotga tatbiq qilish imkonini beradi. Ular nafaqat pedagoglar, balki o'quvchilar uchun ham o'z-o'zini rivojlantirishda kuchli turtki bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu bois, elektron portfoliolarning o'rganilishi pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barrett, H. (2007). Researching Electronic Portfolios and Learner Engagement. The REFLECT Initiative.
2. Darling-Hammond, L. (2008). Teacher Learning That Supports Student Learning. Educational Leadership, 55(5), 6-11.
3. Cambridge, D. (2010). E-Portfolios for Lifelong Learning and Assessment. Jossey-Bass.
4. Jafari, A. & Kaufman, C. (2006). Handbook of Research on ePortfolios. Idea Group Inc.
5. Moon, J. A. (1999). Reflection in Learning and Professional Development. Routledge.
6. European Institute of E-Learning (2012). ePortfolio Use in Higher Education.
7. <https://shared.rti.org/content/digital-transformation-bringing-new-resources-educators-and-students>